

ALISHER NAVOIYNING “FONIYI MUTLAQ O’LMAYIN SOLIK...” QIT’ASI  
TAHLILI

*Jo’rayeva Shahnoza Maxmarejab qizi*

*Samarqand davlat universitetining Kattaqo’rg’on filiali Filologiya va tillarni o’qitish:  
o’zbek tiliyo’nalishi 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qit’aning xususiyatlari, qit’aga qo’yiladigan talablar haqida ma’lumot berilgan. Alisher Navoiyning “Foniysi mutlaq o’lmayin solik...” qit’asi tahlil qilingan.

**Kalit so’zlar:** qit’a, solik, foniysi, kul/kull, lirik janrlar.

**Abstract:** This article provides information about the characteristics of the continent and the requirements for the continent. Alisher Navoi’s poem “Foniysi mulatak olmayin solik...” is analyzed.

**Key words:** continent, tax, fancy, kul/kull, lyrical spirits.

Alisher Navoiy haqida so’z yuritar ekanmiz, o’z zamonasining har jihatdan yetuk va barkamol, so’z xususida tengsiz qobiliyatga ega, buyuk alloma va davlat arbobi ekanligiga shak-shubha qilmaymiz. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug’aniyevich Karimov hazrat Navoiyga: “Agar bu zotni avliyo desak avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir” deya bejiz ta’riflamagan. Chunki buyuk shoirimiz g’azallari son jihatidan, balki badiiylik talablari doirasida ham barcha san’at ixlosmandlariga, she’riyat shaydolariga ham o’rnak bo’lgulik.

Navoiyning ilmiy merosidan joy olgan dostonlarining hamd va na’t qismlarida Olam va Odamning yaratilishi, Qur’oni Karim oyatlarining she’riy tafsiri Alisher Navoiyning buyuk

idrok sohibi ekanligidan dalolat. Navoiy ijodida ko’plab lirik janrlarga duch kelamiz. Shulardan alohida mavqega ega bo’lgan janr- qit’a janridir.

Qit’a (arabcha- bo’lak, qism, parcha)-mumtoz adabiyotdagi lirik janrlardan biri. Tuzilishiga ko’ra, g’azalga yaqin turadi. Qasida va g’azaldan oldin paydo bo’lgan. Qit’a ba’zi manbalarda “boshsiz g’azal” deb ham yuritiladi. Ushbu janr arab, turk, fors-tojik adabiyotida keng yoyilgan janrdir. Qit’aning matla’si qofiyalanmaydi. Qit’a ikki bayt va undan ortiq (19 baytgacha qofiyalanishi mumkin. Uning qofiyalanish tartibi: a:a, d:a, e:a, f:a,..ko’rinishida bo’ladi. Har bir qit’a yaxlit bir asar bo’lib, biron-bir mavzuga bag’ishlanadi. Unda ilmiy-axloqiy, ta’limiy, diniy va boshqa mazmundagi mavzular o’z ifodasini topadi. O’zbek adabiyotida qit’aning ilk namunalarini “Devonu lug’otit-turk”da, Xorazmiy, Gadoiy, Lutfiy, Yusuf Amiriy va boshqalar ijodida uchraydi. Ammo qit’a janrining taraqqiyoti Alisher Navoiy ijodi bilan bog’liq. Alisher Navoiy o’z ijodida qit’adan keng va samarali foydalangan. Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy”ga kiritilgan to’rt devonidan: “G’aroyib us-sig’ar”da 50 ta qit’a, “Navodir ush-shabob”da 50 ta; “Favoyid ul-kibar”da 60 ta; “Badoyi ul-vasat”da 60 ta qit’a o’rin olgan. “Devoni Foniysi”da 64 ta qit’a jamlangan. Hozirda qit’alar barmoq vaznida yozilmoqda.

Foniysi mutlaq o’lmayin solik,  
Anga yo’qtur umidi maqsadi kul.  
Qaro tufroqqa singmayin qatra,  
Andin imkoni yo’q ochilmoq gul.

Bilamizki, bu dunyo o’tkinchi, uning ne’matlari o’tkinchi. Hech birimiz abadiy emasmiz. Navoiy bu qit’asida aynan o’tkinchi dunyo xususida so’z yuritgan. 1-baytda bu foniysi dunyodan shak-shubhasiz o’tib ketishingni bilsang ham, unda nimagadir ega bo’lmoq, undan keragicha foylanmoq lozim. 2-baytda qora tuproqqa tanamiz va ruhimiz singib bo’lgandan so’ng, bu tuproqdan biron-

bir gul yoki giyoh unib chiqmog'iga umid yo'q. Alisher Navoiy "Foniyi mutlaq o'lmayin solik..." sarlavhali qit'asida aynan dunyoning abadiy emasligi va uning ne'matlaridan vaqtida oqilona foydalanish shart ekanligini shu qit'asida ochib bergan.

Bilamizki, So'fiylik- musulmon xalqlarining ko'p asrlik ma'naviy kamolotining g'oyaviy asosini belgilab bergan ta'limotdir. U ilohiy poklik va insoniy go'zallikni idrok etish, Haq va haqiqatni himoya etish vositasi hisoblanadi. Navoiy qo'l urgan har qanday janrda o'zining yuksak maahoratini namoyon eta olgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

**Lug'at:** *solik*- a. biror so'fiylik maslagiga mansub, suluk (so'fiylik yo'lini) tutuvchi; Soliki amr- buyruqqa amal qiluvchi, topshiriq bajaruvchi.

*Foniy*- a. yo'q bo'luvchi, yo'qoluvchi, bituvchi.

*Mutlaq*- a. biron narsa bilan cheklanmagan, shartsiz, hech, aslo, shak-shubhasiz.

*Maqsad*- a. eng yuqori, oliy niyat, yuqori tilak.

*Kul, kull*- hamma, butun, jami.

**Xulosa.** So'z mulkining sultoni, g'oyaviy- badiiy yetuk asarlar muallifi Alisher Navoiyning bundan besh asr ilgari surgan g'oyalari bugun ham o'z ahamiyati va dolzarbligini yo'qotmagan. Navoiy qanday janrga qo'l urmasin, unda pand-nasihat, axloqiy-ta'limiy, diniy va dunyoviy mukammal qarashlari aks etadi. Navoiyning birgina "Xazoyin ul-maoniy" asarida 210 ta qit'a aks etgan. Navoiy har bir qit'asiga o'z bilim ummonidan to'plagan barcha "xazina"larine jo qilgan. Uning qit'alarining mavzusi, g'oyasi bugun zamon va hayot bilan hamnafas.

Ma'lumki, mumtoz adabiyotda ayrim janrlar ( masalan, tuyuq, ruboiy) uchun vaznlr qat'iy belgilab qo'yilgan. Qit'a bu jihatdan ham erkindir. U aruzning istalgan vaznida yaratilishi mumkin.

Alisher Navoiy qit'a janrida ham barakali ijod qilgan. U bu janrda ijod qilgani bilan o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erisha oldi. Hech bir inson yo'qki, Navoiy merosidan bahramand bo'lmagan. Navoiy qit'a janrini o'zbek adabiyotida mustaqil janr darajasiga ko'targan shaxs hisoblanadi.

Ko'rib turganimizdek, navoiy merosi mavzu janrlari yuzasidan turlichadir. Uning asarlari XV asrdan to hozirgi kungacha xizmat qilib kelmoqda. Navoiy asarlari asrlar davomida kelajak avlodlar uchun ilhom manbayi bo'lib xizmat qilishiga ishonamiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

1. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug'ati to'rt tomlik. O'zbekiston SSR "FAN" nashriyoti. Toshkent : 1983
2. Orzibekov R., Lirikada kichik janrlar, T.,1976;
3. Orzibekov R., Adabiy tur va janrlar [3 j.li], 2-j..T..1992
4. Navoiyshunoslik / Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimbek Davlatov.- Toshkent : Akademyonashr, 2020. -576 b.